

## DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

*Yusupov Azizbek Xolmuxamatovich*  
Guliston davlat universiteti Sirtqi bo'lim,  
"Masofaviy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi  
[azizbek198888@mail.ru](mailto:azizbek198888@mail.ru)

*Ravshanov Xusan Abduqul o'g'li*  
Guliston davlat universiteti Sirtqi bo'lim,  
"Masofaviy ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi  
[husanbekravshanov@gmail.com](mailto:husanbekravshanov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, dars samaradorligini oshirish yo'llari haqida to'xtalib o'tdik

**Kalit so'zlar:** Kommunikatsiya, differentsial, texnologiya, dinamik jarayon, grafik, elektron qo'llanma.

**Аннотация:** В этой статье говорится о способе улучшения эффективности урока с помощью применен педагогических и современных технологий в процессе обучения.

**Ключевые слова:** Связь, дифференциал, технология, динамический процесс, графика, электронное руководство.

**Annotation:** This article is devoted to the way of improving effectiveness of the lesson with the help of applying pedagogic and modern technologies in the process of education.

**Keywords:** Communication, differential, technology, dynamic process, graphics, electronic manual.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot – kommunikatsion texnologiyalari, elektron darsliklar hamda multimedia vositalarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunday tub islohotlarning natijasida maktablar, litseylar, oliy ta'lim muassasalari o'quv – laboratoriya bazasi eng zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va boshqa axborot – kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu esa fanlarni o'zlashtirishda qulay imkoniyatlar yaratadi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – 2016.

Ma'lumki, keyingi yillarda O'zbekiston boshqa mustaqil davlat hamdo'stligi mamlakatlari kabi o'zining ta'lim sohasini jahon standartlariga olib kelishda ko'p harakatlar qilmoqda.<sup>2</sup>

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega:

- Differentsial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilish;
- O'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lash;
- O'zini-o'zi nazorat qilish va tuzatib borish;
- O'rganilayotgan fanlarni namoyish etish va ularning dinamik jarayonini ko'rsatish;
- Fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- O'quvchilarda fanni o'zlashtirish uchun strategik ko'nikmalar hosil qilish va hokazo.

Bugungi kunda o'qitishning yangi shakllaridan keng foydalanar ekanmiz, axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal o'rganishimiz, hamda ulardan o'quv jarayonida keng, maqsadli foydalanishimiz lozim. Buning uchun barcha oliy o'quv yurtlarida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tizimi yo'lga qo'yilgan.<sup>3</sup>

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarning o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

O'qituvchilar darsni tashkil etishda quyidagilarni hisobga olishlari lozim:

- ✓ Darsning maqsadi;
- ✓ Maqsadga erishish yo'llari;
- ✓ O'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- ✓ O'qitish metodlari;
- ✓ O'quv topshiriqlarining turlari;
- ✓ Muhokama uchun savollar;
- ✓ Munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- ✓ O'zaro muloqot.

O'qituvchilar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo'llay olishi lozim:

<sup>2</sup> Xolmuxamatovich, Y. A. (2022). ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innovatsie.*, 23, 26-28.

<sup>3</sup> Qudratov, A. N., & Yusupov, A. X. (2021). O'QUV JARAYONIGA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH. *Science and Education*, 2(1), 309-313.

- Yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- Internet, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar asosida darslarni tashkil etishi;
- Darsga metodik tayyorlanish, qo'shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- Kompyuter texnologiyalari asosida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Dars jarayonida slaydlardan ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O'quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o'tilayotgan materialning berilishi mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini engillashtiradi va dars samaradorligini oshiradi. Namoyish etilgan slaydlarni o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o'quvchilar o'zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin. Bu orqali o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'ladilar:

1. Grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
2. Muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
3. O'zining o'quv-biluv faoliyatini rejalashtirish.

Ma'lumki, axborot texnologiyalari axborotlarni yig'ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usuli va vositalari majmuidir.

Darslarda elektron qo'llanmalar, videolavhalar, animatsiyalar, matnlar, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar)dan foydalanish mumkin.

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha fan o'qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- 1) Ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish;
- 2) Dars ishlanmalari va amaliy mashg'ulotlar bilan bog'liq topshiriqlarni tayyorlash;
- 3) Metodik ko'rsatmalar va nazorat savollarini tuzish;
- 4) O'zlashtirish natijalarini tahlil qilish;
- 5) Matnlarni tahrirlash;
- 6) Har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tayyorlash.

Darslarda axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun xizmat qiladi, ta'limni faollashtirishda printsiptial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot – kommunikatsion texnologiyalari dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil etish, axborotning katta oqimini qisqa vaqt ichida oson o'zlashtirish imkonini beradi.



AKTdan foydalanib dars o'tish o'quv samaradorligining keskin oshishiga imkoniyat yaratadi.

Shuni xulosa o'rnida aytish kerakki, dars jarayonlarida kompyuter texnologiyasini qo'llab ma'lum mavzuni o'qitish bo'yicha yoinki alohida didaktik masalalarni hal etishda foydalanish kabi holatda shuningdek, o'qitishda ma'lum texnologiyaning asosiy, aniqlovchi, fundamental, tavsiflovchisi sifatida kompyuterdan foydalanish va boshqa texnologiyalar bilan o'zaro orasidagi munosabatlar masalasi dolzarb sanaladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashning muhim ahamiyatlaridan biri shundaki, mavzuga doir muammolarni kelib chiqishi va shu muammolarni yechish uchun talabada ichki qiziqish hosil bo'ladi.<sup>4</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – 2016.
2. Xolmuxamatovich, Y. A. (2022). ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 26-28.
3. Qudratov, A. N., & Yusupov, A. X. (2021). O 'QUV JARAYONIGA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLASH. *Science and Education*, 2(1), 309-313.
4. Yusupov, A. (2022). TA'LIM JARAYONINI ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA TASHKIL QILISH. *Science and innovation*, 1(B8), 462-466.
5. O'zbekistonda o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini oshirish bo'yicha qo'llanma, Toshkent 2019 y.
6. Yusupov, A., Xudayberdiyev, R., & Allayorov, A. (2024). TA'LIM MUHITIDA TARMOQ TEXNOLOGIYALARI FANINI O 'QITISHNING O 'RNI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 113-118.
7. Bullen, M. Digital Learners in Higher Yeduction: Generation is Not thye Issue / M. Bullen, T. Morgan, A. Qayyum, // Canadian Journal of Learning Technology – 2011 — № 37(1).
8. Yusupov, A., Xudayberdiyev, R., & Allayorov, A. (2023). O 'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TARMOQ TEXNOLOGIYALARINING O 'RNI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6), 70-77.
9. Yusupov, A., Allayorov, A., & Xudayberdiyev, R. (2023). O'QUV JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINING O'RNI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6), 78-81.
10. Khalilova, L., Allayarov, A., Ravshanov, H., Karimova, Z., & Yusupov, A. (2024). LANGUAGE AND SOCIAL CONSTRUCTS IN GENDER-RELATED LEXICAL UNITS. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 164-169.

<sup>4</sup> Yusupov, A. (2022). TA'LIM JARAYONINI ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA TASHKIL QILISH. *Science and innovation*, 1(B8), 462-466.